



SCIENCE TIME

O'ZBEK BOLALAR ADABIYOTI TILIDA QO'LLANILGAN ORNITONIMLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Xudayarova Muxabbat Tajimuratovna

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti O'zbek tili kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.

E-mail: xudayarovamuxabbat1976@gmail.com

Xudayarova Mukarama Tajimuratovna

Xo'jayli tumanidagi 6-maktab o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada o'zbek bolalar adabiyoti asarlari tilida qo'llanilgan ornitonimlar to'plangan, leksik-semantik xususiyatlari o'rghanilgan va ilmiy asosda tahlil etilgan. O'zbek bolalar adabiyotining namoyondalari Quddus Muhammadiy, Adham Rahmat, Shukur Sa'dulla, Hakim Nazir, Qudrat Hikmat, Miraziz A'zam, Xudoyberdi To'xtaboev, Tursunboy Adashboev, Anvar Obidjon asarlaridan matnlar tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: ornitonimlar, qush nomlari, bolalar adabiyoti, zoologik terminologiya, zoonimlar, leksik- semantik, onomastika.

Аннотация: В статье собраны орнитонимы, используемые в языке узбекской детской литературы, на научной основе изучены и проанализированы их лексико-семантические особенности. Проанализированы тексты из произведений представителей узбекской детской литературы Куддуса Мухаммади, Адхама Рахмата, Шукура Садуллы, Хакима Назира, Кудраты Хикмата, Миразиза Азъама, Худойберди Тухтабоева, Турсунбоя Адашибоева, Анвара Обиджона.

Ключевые слова: орнитонимы, названия птиц, детская литература, зоологическая терминология, зоонимы, лексико-семантика, ономастика.

Annotation: In the article, ornithonyms used in the language of Uzbek children's literature are collected, their lexical-semantic features are studied and analyzed on a scientific basis. Texts from the works of representatives of Uzbek children's literature Quddus Muhammadi, Adham Rahmat, Shukur Sadulla, Hakim Nazir, Qudrat Hikmat, Miraziz Azam, Khudoyberdi Tokhtaboev, Tursunboy Adashboev, Anvar Obidjon were analyzed.

Key words: ornithonyms, names of birds, children's literature, zoological terminology, zoonyms, lexico-semantics, onomastics.

KIRISH VA DOLZARBLIGI.

O'zbek tilshunosligida maxsus tadqiq etishni talab etadigan leksik qatlamlardan biri qush nomlari (ornitonimlar)dir. Qush nomlarini lisoniy nuqtayi nazardan o'rghanish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Tilshunoslik fanida ornitonimlarning til xususiyatlarini ilmiy asosda tadqiq etish borasida qator jiddiy ishlar amalga oshirilganligi ilm ahliga, ayniqsa, onomastlarga yaxshi ayon. Ma'lumki hozirgi zamon turkiy tillaridagi zoologik terminologiya chuqr tarixiy ildizlarga, qadimgi turkiy, eski turkiy va eski o'zbek adabiy til obidalariga borib taqaladi.



SCIENCE TIME

O‘zbek bolalar adabiyoti asarlari tilidagi ornitonimlarni, leksik-semantik tahlil qilishga, shu jumladan, o‘zbek tili lug‘at tarkibidagi o‘rnini belgilashga harakat qildik. O‘zbek tili leksik qatlaming bir qismi bo‘lgan ornitologik leksikasini tuzishda qatnashadigan qush nomlarining tarkibi jihatidan turlarini tadqiq qilish muhim amaliy ahamiyatga ega.

METODLAR VA O‘RGANILISH DARAJASI.

Turkiy xalqlarda zoonimlarni lingvistik nuqtayi nazardan tadqiq etish tarixi «Devonu lug‘otit turk»ga borib taqaladi [1]. Bu matnlar tarkibida 100 ga yaqin qush nomlari uchraydi.

Hazrat Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonida qushlar safari timsolida inson kamolotining yetti bosqichi haqida so‘z yuritiladi: talab, ishq, ma’rifat, istig‘no, tawhid, hayrat, faqru fano. Dostonning maxsus bobi “Ma’rifat vodiysining vasfi” deb nomlangan.

Turkologiya, xususan, o‘zbek tilshunosligida xalq og‘zaki ijodi asarlari, bolalar adabiyoti xususan, mavzumiz obyekti hisoblangan ornitonimlarning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlarini yoritishga bag‘ishlangan D.X.Bozorova, I.F.Ishberdin, F.Is’hoqov, Sh.Nosirov, S.Usmonov, D.Yo‘ldosheva, G.Jumanazarovalarning tadqiqotlari xarakterlidir [2;3;5;6;8;10].

TADQIQOT NATIJALARI.

Bolalarga atalgan badiiy asarning tili umumbadiiy tilning normalariga va grammatik qurilishiga amal qilgani holda bolalarcha tafakkur qilishning o‘ziga xos ifodaviy vositasi bo‘lmog‘i, shu bilan birga, bola nutq boyligini muttasil oshirib borishga xizmat qilmog‘i shart. Bunda nuql bolaga moslashib qolmay, balki uni ergashtirib borishga intilib, bolaga notanish so‘z va iboralarni izohtalab qilib qo‘ymay, kontekstdayoq anglashilarli etib ifodalashga e’tibor bermoq lozim.

Qushlar qadimda insonning xo‘jalik, madaniy va ma’naviy faoliyatida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Ba’zi turlari, asosan ovlanadigan yoki ovchilikka oid bo‘lib ularning go‘shti va patidan foydalanilgan. Qushlarning ayrimlari hayvonlarni tutish maqsadida ovga o‘rgatilgan. Yana bir turlari esa manzara berish hamda ko‘ngil ochish uchun xizmat qilgan.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida qush atamasiga quyidagicha ta’rif berilgan: **qush** – umurtqalilarning tanasi par va patlar bilan qoplangan, uchishga layoqatli bir sinfi; parranda [14]. *Janubiy Amerika o‘rmonlarida yashaydigan eng katta qushning* [11 :58] *nomini aytib berolmaydilarmi?*

Bolalarni bog‘cha yoshidan boshlaboq tabiatga muhabbat ruhida tarbiyalash muhim ishlardan biri. Bolalar ijodkorlari bu masalaga alohida e’tibor beradi va o‘z asarlarida ornitonimlardan unumli foydalanadi. Jumladan, Shukur Sa’dullaning



SCIENCE TIME

“Kichkina qushcha” asari alohida ajralib turadi. Unda bolalarning qushlarga bo‘lgan mehri, g‘amxo‘rligi misralar qatiga chuqur singdirilgan:

Hay, hay chumchuq -

jajji qush,

Shoxda turma, pastga

tush!

Erta-yu kech timmaysan,

Charchamoqni bilmaysan.

Chirqillaysan izlab

don,

Mana chumchuq, senga

non!

Qorning to‘ysa

aytasan,

So‘ng uyingga qaytasan!

G‘ofur G‘ulom “Kaptar uchar, g‘oz uchar”, Shukur Sa’dulla “Tinchlik qushi haqida men o‘qigan she’r”, Quddus Muhammadiy “Qanotli do‘stlar”, Mardonqul Muhammadqulov “Uch kaptarim, uch!” kabi shoirlar tinchlik va do‘stlik mavzusidagi asarlari bilan bolalar va yoshlarni tinchlik va do‘stlik ruhida tarbiyalashga hissa qo‘shdilar.

Shoir Adham Rahmat haqida gap ketadigan bo‘lsa, u birinchi navbatda maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar kuychisi sifatidi e’zozlanadi. Adham Rahmatning jajjalarga bag‘ishlab yozgan quvnoq she’rlari, qanotli qo‘shiqlari, ajoyib-g‘aroyib ertak-dostonlari har bir xonadonga, har bir bolalar bog‘chasiga kirib borgan. Bunga misol qilib qushlar va parrandalar hamda hayvonlar haqida yaratgan asarlarini ko‘rsatishimiz mumkin. “Keling, qushlar” asari o‘ynoqi ohangi va fikrning ochiq-ravonligi bilan ajralib turadi. Bolalar tilidan hikoya qilingan bu asarda qushlar o‘zga yurtlardan qishlab qaytib kelgunlariga qadar bizning ona o‘lkamizda qanchadan-qancha ijobiy ishlar amalga oshirilganligi – kanallar qazilib, cho‘l-biyobonlar o‘zlashtirilib, bog‘lar bunyod etilib, ayniqsa, qushlarning erkin parvoz qilib, quvnab yashashlari uchun beqiyos katta imkoniyatlar muhayyo etilganligi chiroylifi ifodaga ega:

Keling qushlar,

Keling qushlar,

Kelinglar!

Bizlar qurgan

Kanallarni

Ko‘ringlar!

Sizlar uchun

Yangi bog‘lar

Qildik biz,

Mirzacho‘lga

Noyob gullar

Qanot yoyib

Zerikmayin

O‘ynangiz.

Xo‘p yoqimli

Kuylarni siz

Kuylangiz

Keling, qushlar,

Keling, qushlar!

Kelinglar!

Shu guliston

Chamanda sayr



SCIENCE TIME

Ekdik biz.

Qilinglar!

Hayotda hamma bolalar ham parranda va jonivorlarga muhabbat bilan munosabatda bo'lavermaydi. Ayrim bolalar ayniqsa, qushlarning qishloq xo'jaligida turli zararkunanda qurt-qumursqlarni yeb, bobo dehqonlarga katta madad berishlarini bilmaydilar. Adham Rahmat bunday holga beparvo qaramaydi, "Qushcha o'g'risi" she'rini yozadi.

Qushning azobin

Tortdi bir oylab.

Sindirib qo'lin

Yotdi voy-voylab.

Adham Rahmatning "Qaldirg'och, ilon va beshiktervatar" asari juda zavqlidir.

Hakim Nazir o'zbek bolalar nasrining otaxon ijodkorlaridan biridir. Adibning "Davronning qushchasi", "Bulbul" kabi hikoyalarida bolalar o'rtasidagi o'zaro do'stlik, axloh-odob, a'lo o'qish, jamoat ishlarida faollik ko'rsatish, kattalarning yumushlariga ko'maklashish, qushlar va jonivorlarga g'amxo'r bo'lish, orzu-umidlar qanotida yashash va boshqa masalalar yotganini ko'ramiz.

Adibning "Lochin qanotlari" romani hamda "Chiranma g'oz – hunaring oz" dramasi ham bolalarning sevimli asarlariga aylanib qoldi.

Miraziz A'zamning juda ko'p she'r, qo'shiq, ertak-dostonlari maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga bag'ishlangan. U har bir asarida bolajonlar uchun albatta, bir yangilik, bir yaxshi gap aytish ishtiyobi bilan qaynab toshadi va buning uddasidan chiqadi. Uning "Bedananing buvisi" she'ri, "Erk qushi", "O'lmas qush" ertak-dostonlari ham bolalarga katta qiziqish uyg'otib kelmoqda.

Bedananing otasi bor ekan, nor ekan,

Onasi oriyat yor ekan, yor ekan.

Dori-darmon, o't-o'lan keltirib, keltirib,

Qari qushga tutishib, ichirib, edirib,

Aylanishib boshida turdilar, turdilar.

Hozirgi zamон o'zbek bolalar adabiyotining taniqli vakillaridan бiri Tursunboy Adashboyevdir. Shoiring "Qo'sh qaldirg'och" she'ri bolalarda katta ta'surot qoldiradi. Bu she'rda qaldirg'och misolida bolalarni xuddi shu qushcha kabi mehnatkash bo'lishga, ahillikka chaqiradi.

Qo'sh qaldirg'och chug'irlashib,

Biri inni turdi poylab.

Ikkinchisi do'st-yorlarni,

Boshlab keldi parvoz aylab.



SCIENCE TIME

Bolalarning sevimli shoiri Anvar Obidjonning she'rlari o'zining yumorga boyligi, yangi fikrni dadil ayta olishi, puxtaligi, ixchamligi, she'r qahramonlarining zukko — topqirligi, sodda va yoqimliligi bilan alohida ajralib turadi.

Shoir aksariyat she'rlarida jonivorlar, narsa-predmetlarning tashqi ko'rinishi tasviri vositasida o'quvchini o'zi ifoda etmoqchi bo'lgan mohiyat ichiga olib kiradi. Masalan:

Qarg'a kirdi

Kinoga.

O'xshab

Buratinoga. «Bezori»

Qushlar qayerda ular uchun yaroqli o'simlik va hayvonlar bo'lsa, o'sha yerda: o'rmon va bog'larda, o'tloq va botqoqliklarda, suvlarda, dashtlarda, tundra va cho'llarda yashaydi. Qushlarning mana shu xususiyatlariga tayangan holda, bolalar adabiyoti asarlari tilida qo'llanilgan ornitonimlarni quyidagi leksik-semantik guruhlarga ajratib tahlil qildik.

1. Yirtqich qushlar nomi: *lochin, yapaloqqush, boyqush, boyo 'g'li, burgut, ukki, qarchig 'ay* singari.

Lochin – yirtqich qushlar turkumining chaqqon harakatli bir turi; ovchilar uni qo'lga o'rgatib, qush ovlaydilar.

Yov buzolmas bu yurtning tinchin,

Afsus,

Qarib boryapti Locnin [15 :74].

Ukki – yapaloqqushlar urug'idan bo'lgan yirik yirtqich tun qushi.

Qushlar qizig 'i ukki,

Qayrilma tumshuq dukki.

Ko 'zi yonar olovdek,

Tunda yonar oftobdek.

Kalamushni ov qilar,

Tekinxo 'rni daf qilar [7 :48].

Qarchig'ay – kalta qayirma tumshuqli, tirnoqlari uzun va o'tkir, ovga solinadigan yirtqich qush.

Qarchig'ay, hoy, qarchig 'ay,

Qarashlaring achchig '-ay.

Panjang o'xshar zanjirga,

Tirnoqlaring xanjarga [7 :49].

Burgut – qarchig'aysimonlar (lochinsimonlar) oilasiga mansub katta yirtqich ovchi qush.



SCIENCE TIME

*Haligi, **burgut** o 'ljasiga tashlanganda qanotlarini ichiga olib tumshug 'ini oldinga cho 'zib boradi-ku, xuddi ana shunday uchib borayapti (X.To'xtaboyev. "Quyonlar sultanati", 16-bet).*

*Bor edi bir odil **Burgutshoh***

Tobe edi unga qir-u tog ' [15 :73].

Qirg'iy – tumshug 'i kalta va qayrilgan, asosan uncha yirik bo 'lmagan qush, parrandalarga ovga solinadigan sohibchangal yirtqich qush.

Bunda Locnin qo 'shinga rahbar,

*Sho 'x **Qirg'iylar** – eng sara lashkar [15 :73].*

Quzg'un – qarg'asimonlar oilasiga mansub, har qanday narsani ham eyaveradigan, o'limtikxo'r o'troq qush.

*Qo 'mondondir unda surbet **Sor***

*Och **Quzg'unlar** hamlaga tayyor.*

Sor – qarchig'aylar oilasiga mansub yirtqich qush.

2. Madaniy-landshaft qushlari nomi: chumchuq, kaptar, chittak, sa'va, bulbul, bedana, musicha, qumri, to'rg'ay, mayna, zarg'aldoq, qaldirg'och, kabi.

Chumchuq – ko'pincha xonadonlarga yaqin joylarda yashaydigan, hasharot va don bilan oziklanadigan kichkina qush.

*Bo 'g' otda sayrar **chumchuq**,*

Kuyi bitta chiq-chiriq.

Chiq-chiriqlab kuylaydi,

Doim qornin o 'ylaydi [7 :59].

*Tol shoxiga berkingan **chumchuqlar** ham chirqillashmay qolishgan, atrofdim, juda ham dim [11 :163].*

Kaptar – rang-barang tusli va turli katta-kichiklikdagi xonaki yoki yovvoyi qushlarning umumiyl nomi.

Kaptarim deydi g 'uv-g 'uv,

G 'uv-g 'uvlab nima der u?

Kaptarimning so 'zi bu,

Kaptar so 'zi qizig '-u! [7 :59].

Chittak – kichkina, chaqqon, sayroqi qush.

Tok so 'rimiz boshiga

*In qurgan bir juft **chittak**,*

Qushlar mittisi, go 'zal,

Uchqur, yo 'rg'a, yugurdak [7 :59].

Sa'va – chumchuqsimonlarga mansub qushcha. Chumchuqsimonlar turkumiga mansub, rang-barang patli sayroqi qush .



SCIENCE TIME

Hoy Sa'va qush, mitti qush,

Kel! endi yonimga tush!

Qalin o'rtoq bo'laylik,

Shod qo'shiqlar kuylaylik. Sa'va sayrarkan [7 :10].

Bulbul – chumchuqsimonlar turkumining qorayaloqlar oilasiga mansub sayroqi qush.

Bulbuljonim kuylasin,

Yoqar kuyi jonimga.

Tinglagim kelaverar,

Sayrasa gul bog'imda.

Kuyi ajib yoqimli,

Ko'nglimga zavq bag'ishlar.

Vatanim chamanzorin

Bulbuljonim olqishlar. Bulbul jonom kuylasin. Quddus Muhammadiy

Qushlar hofiz shoirasi,

Yo'q dutor, doirasi.

Nomi ekan bulbuljon,

Bulbuljonmas bo'l-bo'ljon,

Qo'shig'i mazajonon [7 :11].

Bedana – tovuqsimonlar turkumining qırğınovulsimonlar oilasiga mansub parranda, kichik sayroqi qush.

Ellik to'r qovoqning yigirmatasida sayroqi bedana-yu, qolganida liq to'la pul, oltin taqinchoqlar, tangalar! (To'xtaboyev X.)

Musicha – kaptarsimonlar oilasi gürräklar urug'iga mansub, odamga yaqin yashaydigan, beozor, yuvosh qush.

Men ham ko'rdir musichaning urushin,

Patir-puturbir-birini surishin,

Cho'qilashi, nuqilashib qolishin,

Quzg'un qushdek, pat yulishib olishin. (Musicha nega urushadi?) [7 :80].

Qumri – kaptarlar turkumiga mansub, qafasda ham urchiydigan sayroqi qush.

Bir zamonda Qumri qush

Ajoyib qizcha bo'lgan.

O'gay ona azobida

Bag'ri kabob jizza bo'lgan (Qumri qushcha) [7 :78].

To'rg'ay – chumchuqsimonlar turkumining bir oilasiga mansub kichkina sayroqi kushlarning umumiyy nomi.

Kanal yoqalab bir kun,



SCIENCE TIME

Yo 'lda borardi To 'lqin.

Ko 'radi to 'rg'ay uchar.

Ko 'kni qanotlab quchar. (To'lqinjon bilan to 'rg'ay) [7 :52].

Mayna – chumchuqsimonlar oilasiga mansub sayroqi qush.

Satang qushcha – maynaqush,

Chorbog 'imda sayrar qush.

Parlari qora baxmal

Bergandek tillo zarhal.

Oshaman der bulbuldan,

Mayna nom olgan shundan [7 :24].

Qaldırıg'och – chumchuqsimonlar turkumining bir oilasini tashkil etadigan, qanoti ingichka va uzun, juda tez uchadigan, qora-ola kichkina qushcha.

Odam do 'sti qaldırıg'och,

Ko 'zları kular qiyg 'och.

Bola ochar ko 'klam-yoz,

Ini loy oynushasoz [7 :24].

Qarqunoq – chumchuqlar turkumiga mansub, tumshug'i egilgan, hasharot, mayda parranda va hayvonlar bilan oziqlanadigan qush.

– *In solishdi qarqunoq*

Chumchuq, chittakdan no 'noq.

Nor tog 'amning so 'zicha

Eng dangasa musicha [9 :79].

Zarg'aldoq – chumchuqsimonlar turkumiga kiruvchi, qanotlari qoramadir, o'zi sariq sayroqi qush.

Qo 'shnimiz teragida,

In qo 'ygandi zarg'aldoq.

Bolalari chig 'irlar,

Olmoq bo 'ldim men birchoq.

Oq yaktakli qayinlar

Taqdi yana zarbaldoq.

Qushlarga gap tayinlab,

Chag '-chag 'laydi zarg'aldoq [7 :45].

3. O'rmon qushlari nomi: popishak, kaklik, qirg'ovul, zag'izg'on, tovus, kakku, qizilishton, qarg'a, olaqarg'a, zag'cha va boshqalar.

Sassiqpopishak – olachipor patli, elpig'ichsimon tojli, qayrilma tumshuqli hasharotxo'r qush.

(Sassiqpopishakni nega sassiq deyishar?)



SCIENCE TIME

Sassiq – unvoni qiziq.

Qushga kelishmas dog‘, yuk

Sassiqpopishak nechuk?

Nega bunday deyishar. (Yangi nom qo‘ydim) [7 :42].

Tagida naq yetti qat to‘shak,

Kitob o‘qir Sassiqpopishak [15 :75].

Kaklik – tovuqsimonlar oilasiga mansub sayroqi tog‘ qushi.

Tog‘ tovug‘i go‘zal kaklik,

Oyoqlari po‘paklik.

Qizil tumshuq, qizil ko‘zlik,

Parimayin, kulrang, ko‘hlik [7 :84].

Hoji do‘ppili Sulton puchuq takyada boqib yurgan kaklik g‘id-g‘idlay boshladi, biroq bu jonivorlar ham menga o‘xhash birisi oq Taytay tog‘ning baland yon bag‘ridan, ikkinchisi Qing‘iroq tepaning qiyuq pichanzorlardan ajralfan bo‘lib, ermaklikka uzoq chidam berolmas edi [G‘afur G‘ulom. Shum bola. 127].

Fermamizga ikkita kaklik ham bo‘laredi, bir kuni yonlaridan o’tib ketatarsam, mana bunday qilib sayrashayotgan ekan...[10 :277].

Tustovuq – tovuqlar zotiga mansub, patlari chiroyli, asosan to‘qayzorlarda yashaydigan, ovlanadigan qush; qirg‘ovul.

Eshilgan choq unda Tustovuq,

Termulardi Sa‘valar sovuq [15 :73].

Tustovuqni qirg‘ovul nomi bilan ham atashadi.

Hayvonotlar bog‘ida

Beda kemitir quyonlar.

Qirg‘ovullar sayr qilib

Xotirjam yurar donlab.

Ellikta erur boshi,

Bir yuz qirqta oyog‘i.

Qancha quyon, qirg‘ovul

Toping, o‘g‘lim, buyog‘in [9 :108].

Zag‘cha – qarg‘asimonlar oilasiga mansub, patlari qoramtil qush.

Bo‘talog‘-u kuchuklar,

Buzoq-uloq yalanar,

Zag‘cha-to‘rg‘ay taranar,

To‘y shudringga belanar,



SCIENCE TIME

Siz ham cho'm-cho'm qilvoling. (Anvar Obidjon.“Meshpolvon jangga otlandi”, 117-bet).

Tepaga baland qilib ko'tarilgan tokning uzumi hali uzilmaganligi uchun zاغ'chalar chag'-chag'lashib uzum talashishadi [11 :176].

Zag'izg'on

Qishloq cheti changalzorda

Yashar edi talay qarg'a.

Ne topsalar qag'-qag'lashib

*Baham ko'rib ini-og'a. (**Zag'izg'on**) [7 :63].*

O'rilarning ustasi, qushning xunuk tusdasi,

*Ko'rib qo'ying nusxasin, sur **Zag'izg'onga** salom [15 :57].*

Zag'izg'onni shevada olahakka ham deb atashadi [13 :109].

Uchar par-par olahakka,

Daraxtzor, chakalakda.

Qo'nar o'ynab butoqqa,

Alanglaydi har yoqqa. (**Olahakkaning qo'rgoni**) [7 :66].

Tovus – qirg'ovullar oilasiga mansub, rang-barang patli, erkaklarining dumi yelpig'ich shaklli chiroylu qush.

*Qal'aning to'rt tomini to'rt xil olam timsoli bo'lib, bir taradagi shinam bog'da olmaxon-u ohular, sirtloncha-yu **tovuslar** ahil o'ynoqlashib yurar, ikkinchi yoqdagi borliq **sayroqi qushlari** xonish qilib turar, uchinchi yondagi bir-biridan mo'jaz ko'shk-u ayvonlarning naqshi ko'zni qamashtirar ekan* (A.Obidjon.“Meshpolvon jangga otlandi”, 84-bet).

Kakku – o'zi in qurmasdan, boshqa qushlarning iniga tuxum qo'yadigan, «kakku» deb sayraydigan o'rmon qushi.

Nima ekan bu qush nomi?

Sevar to'qay, o'rmonni.

Qo'shiq aytarkan kak-ku,

*Shu sababdan nomi **Kakku**.* [7 :54].

Qizilishton – oyog'i kalta, tumshug'i baquvvat va uzun, o'rmonda yashovchi qush.

Qizilishton nazdida,

Bo'lish og'ir ko'rinar,

Biroq sakkiz ikkiga,

*Oppo-oson bo'linar. (**Bo'luv**) [7 :205].*

Guldor to'ni kelishgan, qurtlarni yeb to'lishgan,

*Daraxtlarda in teshgan **Qizilishton** salom [15 :56].*



SCIENCE TIME

Qarg‘a – patlari tim qora (qora qarg‘a) yoki qora bilan kulrang aralash (ola qarg‘a) ko‘chmanchi qush (O‘zbekistonda qish oylarida bo‘ladi).

Bir zamonda qarg‘alar

Osha mag‘rur “qag‘-qag‘”lar.

Baland ekan havosi,

Antiq qo‘sish navosi. (Qarg‘a nega bir cho‘qib to‘qqiz qarar?) [7 :82].

Olaqarg‘a – chumchuqlarsimonlar turkumining qarg‘alar oilasiga mansub, qora va kulrang patli qarg‘a.

Arslonlar, qoplonlar dastyorlik qilarkan, zaharli ilonlar qorovullik borarkan, olaqarg‘alar guruhi karnay chalib, popushaklar o‘yinga tushib borarkan (X.To‘xtaboyev. “Uch sayyohning safari”).

4. Suvda yashovchi qushlar nomi: g‘oz, o‘rdak, oqqush va hokazo.

G‘oz – yovvoyi yoki xonakilashtirilgan, bo‘yni uzun, suvda suzuvchi yirik qush.

– *Qarg‘a qaqimchi ekan,*

Chumchuq chaqimchi ekan,

G‘oz karnaychi ekan,

O‘rdak surnay ekan. ”G‘oz karnaychi ekan” Tursunboy Adashboyev.

Oqqush – g‘ozlar oilasiga mansub, patlari oq, bo‘yni uzun yirik suv qushi; quv.

Derlar bir qush bor emish,

Hamisha sut oq dermish.

Kongli sutdek oppoq emish,

Ko‘ngli sho‘x, quvnoq emish. (Sut oqqush) [7 :56].

O‘rdak – o‘rdaksimonlar oilasiga mansub, bo‘yni kalta, oyoqlari qisqa kuraksimon, suvda suzib yurishga moslangan, yalpoq tumshuqli parranda.

Ana **o‘rdak**, ana **g‘oz**,

Ana **maymun** – sho‘x darvoz.

Xo‘roz qichqirar: ”Qu-qu!”

Bunday **yo‘lbars**, **sher** yo‘g‘-u... (Quddus Muhammadiy. “Ahmadjonning kitobxonligi” 3-qism, 4-b).

5. Quruqlilikning ochiq joylarida yashovchi qushlar nomi: turna, tuyaqush, laylak kabi.

Turna – Issiq o‘lkalarda botqoklik va ko‘llarda yashaydigan, oyog‘i, bo‘yni, tumshug‘i uzun, boshida toji (sochi) bor ko‘chmanchi qush.

Qo‘llarida soz bilan,

Gul g‘uncha parvoz bilan,



SCIENCE TIME

*Silkinib parvoz bilan,
Uchib turna, g‘oz bilan,
Qadrdon bahor keldi (Quddus Muhammadiy.“Bahor keldi”).
Turna esa cho ‘ng suyakni
Tortar uning tomog ‘idan
Juda moslab yo ‘nilgandir,
Hayvonlarning shakli, izi. Tursunboy Adashboyev “Ertaklar dunyosi”(203-b.)*

Laylak – uzun oyoqli qushlar turkumiga mansub, tumshug‘i va oyog‘i uzun, parlari ola (oq va qora aralash) katta qush.

*Ajoyib qushdir laylak,
Nog ‘ora chalar tak-tak.
Dumi go ‘zal, bir tutam,
Qiziqdir yurishi ham [7 :40].*

Statistik tahlil natijalariga ko‘ra o‘zbek bolalar adabiyoti namoyondalarining asarlari tilida *qush, chumchuq, qarg‘a, turna, g‘oz, o‘rdak, mayna, musicha* kabi ornitonimlar ko‘p qo‘llanilgan.

Quddus Muhammadiyning ”Sa‘va sayrarkan”, ”Bulbul”, ”Mayna”, ”Qaldirg‘och”, ”Chittak”, ”Laylak”, ”Zarg‘aldoq”, ”Dorboz qushni ko‘rganmisiz?”, ”Ukki”, ”Qarchig‘ay”, ”Kaptarim deydi g‘uv-g‘uv”, ”To‘lqinjon bilan to‘rg‘ay”, ”Sut oqqush”, ”Chumchuq sayrarkan”, ”Kakku”, ”Qarg‘a nega bir cho‘qib to‘qqiz qarar?”, ”Musicha nega urushadi?”, ”Kaklik”, ”Qumri qushcha”, ”Olahakkaning qo‘rgoni”, ”Zag‘izg‘on”, Tursunboy Adashboyevning ”G‘oz karnaychi ekan”, Anvar Obidjonning ”Hakka qo‘shig‘i”, ”Kaklik qo‘shig‘i”, ”Chumchuq qo‘shig‘i”, ”Musicha qo‘shig‘i”, ”To‘rg‘ay qo‘shig‘i”, ”Bedana qo‘shig‘i”, ”Tog‘ qushi”, ”Qarg‘alar bog‘chasida”, ”Chumchuqlar bozorida”, ”Burgutlar darsligida”, ”Odil Burgutshoh va ”Zamburug“ laqabli josus haqida”, ”Bulbulning cho‘pchaklari”, »Hakka xolaning ig‘volari« singari asarlardagi ornitonimlarni o‘rganish, ularni tilshunoslik nutayi nazaridan tahlil qilish katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Adiblar asarlarining sarlavhalarini nomlashda ham ornitonimlardan unumli foydalangan. Bu xil badiiy asar nomlarini zooktematonimlar tarzida talqin qilish mumkin.

XULOSALAR.

Xulosa qilib aytganda, asarlari tilidagi ornitonimlarni o‘rganish jarayonida ularning majoziy tasvir uchungina emas, hatto yirik ramziy asarlarning yaratilishiga ham asos bo‘lganligini ko‘rish mumkin. Tilimizdagи barcha ornitonimlarni to‘plash, leksik-semantik guruhlarga ajratish va shu asosda ”O‘zbek



SCIENCE TIME

tilidagi ornitonimlarning izohli lug‘ati”ni yaratish o‘zbek tilshunosligi oldida turgan dolzARB muammodir.

ADABIYOTLAR:

1. Абдурахмонов Ф. “Девону луғотит турк” асарининг ўрганилиш тарихидан.// Ўзбек тили ва адабиёти. 2009, 6-сон. Б.49.
2. Базарова Д.Х. История формирования и развитие зоологической терминологии узбекского языка (на материале названий птиц). – Ташкент, 1978.
3. Жуманазарова Г. Фозил Йўлдош ўғли достонлари тилининг лингвопоэтикаси (лексик-семантик, лингвостилистик ва лингвостатистик таҳлил). – Тошкент, 2012. -288 б.
4. Исҳоқов Ф. «Зарбулмасал»даги қуш номларига доир // «Ўзбек тили ва адабиёти» журнали, 1973, №1. -Б.46-50.
5. Ишбердин Э.Ф. Наименования птиц в башкирских говорах //«Вопросы башкирского языкознания». – Уфа, 1973.
6. Yo'ldosheva D. O'zbek tilida ornitonimlarning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlari haqida. – Samarqand, 2007. –105 b.
7. Quddus Muhammadiy. Qanotli qushlar. –Toshkent , 1997. 48-b.
8. Носиров Ш. Диалектал орнитологияга оид кузатишлар // «Ўзбек тили ва адабиёти» журнали, 1986, №5. -Б.56-60.
9. Ona tili. 3-sinf darsligi. Tursunboy Adashboyev she’ri. 108-b.
10. To‘xtaboyev X. Sariq devning o‘limi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012, 277-bet.
11. To‘xtaboyev X. Sariq devni minib. Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2017, 58-bet.
12. Усмонов С. Йилқичиликка алоқадор номлар // «Ўзбек тили ва адабиёти» журнали, 1987, №6. Б. -55-57.
13. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Uchinchi jild. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007. 109-b.
14. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Beshinchi jild. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. 394-b.
15. www.ziyo.uz.com kutubxonasi. Anvar Obidjon. O‘g‘irlangan pahlavon. 74 b.